



## OILAVIY MUNOSABATLARDA FARZAND TARBIYASI MASALALARI

*Meliboev Doniyor Hayotjon o‘g‘li*

*Farg‘ona davlat universiteti*

*Psixologiya yo‘nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** oila jamiyatning bir bo‘lagi. SHaxs oilada tarbiya topadi. SHaxslararo munosabatlar ijobiy iliq bo‘lgan muhitda mustaqil fikrga ega, yangicha ilg‘or g‘oyalar mualliflari etishib chiqadi.

**Kalit so‘zlar:** oila, shaxs, ijodiylik, mustaqil tafakkur, psixologik muhit, jamiyat, tarbiya, komil inson, samarali ta’sir, hayot maktabi

Keng imkoniyatlar mamlakati bo‘lgan obod diyormizda yoshlarni mustaqil, erkin fikrlovchi, sog‘lom turmush tarziga xos insoniy fazilatlarga ega qilib tarbiyalash borasida yuksak muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Oila mustaxkam bo‘lishi, uning axloqiy, huquqiy asoslari, barqarorligi komil insonni tarbiyalashning bиринчи zaminidir.

Oilaviy munosabatlar muhiti yaxshi bo‘lgan sharoitda farzandlarni komil inson qilib tarbiyalab voyaga etkazish imkoniyati to‘laqonlidir. Har qanday jamiyatning taraqqiy etishi, mustahkamligi shu jamiyatda tug‘ilib, shaxs sifatida shakllanadigan insonning dunyoga kelishi va voyaga etishida bosh omil bo‘lmish oilalarning barqarorligiga uzviy bog‘liqdir.

Farzand taraqqiysi uchun xavfsiz, uni hissiy qo‘llab-quvvatlaydigan, o‘z faoliyatini namoyon qilishga imkon beradigan tabiiy muhit oila hisoblanadi. Oilada bolalar o‘zaro munosabat, ijtimoiy rollarning ko‘nikma va malakalarini egallaydilar hamda dastlabki me’yor, qadriyat tushunchalarini shu erda anglay boshlaydilar.

Oiladagi ma’naviy muhit yaxshilagini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan biri - inoqlik, ahillik, totuvlikdir. Inoqlik oila bir-birini hurmat qilishi, bir-biriga ishonishi va suyanishi natijasida yuzaga keladi.



Psixolog V.P.Levkovich tadqiqotlari natijasi shuni ko'rsatadiki, shaxslararo munosabatlar yomon bo'lgan oiladagi bolalarda dushmanlik, ishonchsizlik, befarqlik va boshqa salbiy sifatlar shakllangan va bu bolaning ichki dunyosiga ham zarar etkazgan bo'ladi. Ota-onalarning farzandlariga mehr-muhabbatli bo'lishlari va buni to'g'ri ifodalab berishlari oiladagi psixologik muhitning har tomonlama sog'lom, ma'naviy mustahkam bo'lishiga erishishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Oiladagi axloq, odob tarbiyasi o'z-o'zidan amalga oshmaydi. "Ota-onalarning farzandlariga berayotgan tarbiya inson shaxsi shakllanishining birinchi poydevoridir. Bu poydevor inson ma'naviy olami degan jarayonning hammasi emas, balki boshlanishi. Bu poydevor aql, idrok, ma'suliyat bilan barpo etilgan bo'lsa uning ustiga go'zal, mustahkam bino qo'rish mumkin. Bu binoning chiroyi, naqshlari inson xayotining barcha davrlarida shakllanib, sayqal topib boradi."<sup>1</sup>

Ijobiy sifatlarni bolada shakllantirib, rivojlantirish uchun avvalo ota-onalarning qolaversa katta yoshdagilar o'zlariga tanqidiy ko'z bilan qarashlari, o'zlarining shaxsiy namunasi bolalarga qanday ta'sir etishini o'ylab ko'rishlari lozim. Ota-onalarning namunasi bolalar uchun ko'rgazmali hayot darsidir. Ota-onaga, jamiyatga, jamiyat a'zolariga bo'lgan munosabati bola qalbida yaxshilik yoki yomonlik, ma'qul yoki noma'qul ishlar haqidagi dastlabki tushunchalarni vujudga keltiradi. Faqatgina og'zaki so'zlar emas, balki ongli, o'ylab qilingan ishlar bola ongi va qalbiga borib etadi.

Tarbiya jarayonida oilaning tarbiyasi katta ahamiyatga ega. Kattalarning ko'rsatmalari va xatti-xarakatlari avvalo katta avlodning ishlari, bolalar tarbiyasiga u yoki bu tomondan bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi.

Oila qurishda turmush, bolalar tarbiyasi, ularni ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlash kabi maqsadlar ko'zlanadi. Oilani bunday ijtimoiy vazifasi jamiyat uchun ham, er – xotin uchun ham juda muhimdir. "Insonni o'rgatib baxtli qilib bo'lmaydi, ammo uni shunday tarbiyalash kerakki, u baxtli bo'lsin" degan edi. A.S. Makarenko.

Ota – onalar qanchalik ma'naviy boy, e'tiqodli va ta'sir usullarini bilishlari lozimki, shu darajada takomillashgan uslub orqali o'z farzandlarini tarbiyalaydilar.

<sup>1</sup> Yusupov E. Oila manaviyat bulog'i. T.: 2003 y, 116-b



Ular faqat maslahat berish, ma'qullash, mukofatlash, jazolash, suhbat va hikoya, fikr almashish bilangina emas, balki shaxsiy namunalarini, bolalari bilan birgalikda ishslash, ularni mehnat faoliyatiga tortish orqali ham tarbiyalaydilar.

Inson o'ziga ato etilgan baxtning to'rtadan uch qismini oiladan, chorakdagagi etar-etmas qismini boshqa narsalardan topadi. Ba'zi oilalarda ayol liderligining mavjudligi o'g'il bola shaxsida ayollarga xos xususiyatlarning kuchayib borishiga olib kelishi mumkin. O'g'il bolalarda feminin sifatlarning ko'proq namoyon bo'lishining sabablaridan biri ham oilada ota rolining, mavqeining pastligi bo'lsa, qiz bolalarda maskulin sifatlarining ortishiga ayolning oilada ro'zg'or boshqaruvi, oilani moddiy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni bajarish uchun mas'ulligining ortganidir.

Kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni sog'lom, barkamol, bilimli, mustaqil va erkin fikr sohibi etib tarbiyalashimiz muhimdir. Oilaviy munosabatlar jarayonida farzandlarni erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalasak, bundan kelgusida nafaqat oila, balki butun jamiyat manfaatdor bo'ladi. Buning uchun ularning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiyalashimiz hamda ularning bildirayotgan fikrlarini ahamiyatsiz qoldirmasligimiz lozim. Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayonida va ishlab chiqarishda o'zaro munosabatlar, aloqalar, hamkorlikdagi aqliy va jismoniy mehnat mahsuli, muomala maromi mustaqil fikrlash majmuasi tariqasida yuzaga keladi. SHaxs mustaqil fikrlash orqali voqelikni umumlashtirib, narsa va hodisalar o'rtaqidagi ichki, murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalari, xususiyatlar hamda mexanizmlarni anglab etadi.

Demak, agar inson o'zigacha yaratilgan kashfiyotlar, ilmu fan yangiliklari mohiyatini bilgach, ularning yangidan-yangi ochilmagan qirralarini boshqa tomondan ham o'rganishga o'zida xohish, tilak, kuchli ehtiyoj va malakalar hosil qilsagina, uning fikri erkin va nostandard bo'lib, kashfiyotlar qilishga qodir bo'ladi. Uning aqli boshqacha fikrlash malakasini orttira borib, boshqa odamlarga nisbatan mustaqil hukmlar chiqarishga o'rganib boradi. Bu esa ilmiy tafakkur ijodiy kamolot kalitidar. O'z fikriga ega bo'lмаган одам фақат бoshqalardan o'zlashtirib олинган fikrni to'g'ri tushunib olish va ularga rioya qilgan holda biror ishni amalga oshirish bilangina



cheklanib qoladi. Fikri boshqalarga qaram bo‘lgan odam o‘zgalardan tayyor holda o‘zlashtirilgan fikrdan faqat shaxsiy muammolarini hal qilish uchun foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi, zero, u boshqa odamlarning ham ana shunday muammolari haqida mulog‘aza yuritish, ularni imkoniyat darajasida hal qilishga intilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, fikriy qaramlik insonda faqat shaxsiy manfaatlar doirasida faoliyat yuritish bilan cheklanish, ijtimoiy muammolarni tushunmaslik va ularni hal qilishga layoqatsizlik kabi salbiy xususiyatlarning shakllanishiga olib keladi.

Oilada o‘z-o‘zini to‘g‘ri anglagan bolalargina maktab ta’limi jarayonidayoq bilimlarni samarali egallaydilar. O‘z-o‘zini anglagan va bilimlarni chuqr o‘zlashtirgan bolalargina komil inson sifatida tarbiyalanadilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Mustaqil fikrlash. Karimova V.M, Sunnatova R.I, Tojiboyeva N. T.2000.
2. Yusupov E. Oila manaviyat bulog’i. T.: 2003 y, 116-b
3. Ibrokhimjonovna T. N. Personal education as a main basis of society's development //academicia globe: inderscience research. – 2021. – t. 2. – №. 03. – s. 1-2.
4. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna. "Vajnye aspekty uprajneniy v umstvennoy deyatelnosti psixologicheskaya interpretatsiya." International journal of discourse on innovation, integration and education 1.5 (2020): 97-99.
5. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna// The importance of thinking in the complex process of individual activity// International conference on Studies in Humanities, Education and Sciences.January 10 th,2022.69-70